

OGAHIYNING ADABIY-TANQIDIY QARASHLARI

Axmedova Gulnoza Atanazarovna

O'zbekiston Respublikasi

IIV Akademiyasi katta o'qituvchisi f.f.n.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiyning she'r xususidagi fikrlari, o'z davri ijodkorlari, xususan shoirlariga munosabati, shoir shaxsiyati, ijod borasidagi adabiy-tanqidiy qarashlari to'g'risidagi fikrlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: she'r, ijod, shoir, tanqidiy qarash, xolislik.

Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy (1809-1874) o'zining "Ta'vizul-oshiqin" devoni debochasida "she'r bir ne'mati o'zamodurkim, Tangri taolo oni har kishiga ato qilmamishdur va oni aytmoq hunari har kimning qo'lidan kelmamishdur",— deb yozgan edi. Darhaqiqat, muallif o'z davri ijodkorlari, xususan shoirlariga munosabat bildirishda ana shu tamoyillarga asoslanadi. Buni Ogahiy Tangri inoyati ila "she'r aytmoq hunariga" tuyassar bo'lgan Munis, Dilovarxoja, Xolis, Rojiy kabi talantli zamondosh shoirlar ijodi haqidagi, shuningdek bu hunar qo'lidan kelmasa ham o'zini shoir atagan "ijodkorlar" to'g'risidagi fikrlarida yorqin ko'ramiz. Ogahiy shoirlar iste'dodini baholashda ularning shaxsiyati va asarlari mohiyatiga diqqat qaratib, haqqoniylilikni ijodning asosiy mezoni hisoblaydi.

Ogahiy — ijodda xolislik tarafdir. Bu esa shoir shaxsiyati bilan bog'liq fazilatdir. Ammo, bunga barcha ijodkor tuyassar emas, xususan hasadgo'ylik va nopolik shoirni beburd qiladi. Ogahiy bundaylardan nafratlanar ekan, "hosid dili hamesha xun, alami esa dam-badam fuzun (ko'p)" ekanini ta'kidlaydi. Uning quyidagi baytlarida hasadchi ijodkorning tuban fikri, g'arazli maqsad va kirdikori dadil fosh qilinadi:

Ey hasud, ushbu fikr fosiddur,
Fikri fosid hamisha kosiddur.

Senkidursen so'z aslidin mahjur,
Na desang, eyki, borsen ma'zur.
Na g'arazkim edi sango ma'lum,
Ul burundan edi mango mafhum. (III 320)

Ogahiyning uqtirishicha, hasadgo'ylik buzuq (fosid) fikri inqirozga (kasod) mahkum, o'zi asl (ma'noli) so'z aytishdan yiroq va g'arazgo'yligi esa oshkordir. Bu mulohazalar shunchaki qayd etib qolinmay, hasadning yomon oqibatlari, kasofati ham qattiq qoralanadi. Shoir bunday ijodkorni qanotsiz chumoliga qiyos qilib, ("Mo'r qoqmoq qanot na imkondur") o'z fikrini yanada rivojlantiradi:

Qachon o'lg'oy sadoi g'ulg'uli zog',

Rohatafzo navoi bulbuli bog‘. (III 320)

Darhaqiqat, g‘arazgo‘y shoirning she’ri (sadosi) qarg‘anining yoqimsiz ovozi yanglig‘dir, u hech qachon bulbulning farahbaxsh navosidek bo‘la olmaydi. Baytdagi o‘zaro zid ma’noli “zog” va “bulbul”, “g‘ulg‘uli” va “rohatafzo” so‘zlari orqali haqiqiy va soxta badiiy ijod hamda ijodkor haqidagi fikr obrazli ifodalangan.

Ogahiy tanqidiy qarashlarining bir yo‘nalishi hiylagar, ko‘chirmachi va o‘g‘ri shoirlarni fosh qilishga qaratilgan. Garchi shoir ularning nomini aniq aytmasa ham o‘z davridagi ayrim noplak ijodkorlarni nazarda tutganini payqash qiyin emas. Jumladan, muallif o‘zgalar she’rini o‘zlashtirgan shoirga “sen o‘qursan birov so‘zini manga” deya e’tirof bildirib, unga qarata shunday deydi:

Kishi she’rin o‘g‘irlama zinhor,

Bo‘lsa o‘z she’ring aylagil izhor.

O‘zgalar shavq jomin ayladi no‘sh

Senga ish telbadek mudom xuro‘sh. (III 320)

Ko‘rinadiki, keyingi baytda boshqa ijodkorlar bilan soxta shoir taqqoslanib, ijod qilmoq chinakam shoirlar uchun shavq piyolasidan bahramandlik bo‘lsa, tovlamachi shoir uchun jinnilardek baqirmoqdir. Bunda Ogahiyning haqiqiy talant ijodda faxr, hiylagarlik esa fojea ekanligi haqidagi qarashi yorqin aks etgan.

Navbatdagi baytlarda ushbu fikrlar davom ettirilib, noplak shoirning salbiy xislatlari yanada kengroq qoralanadi. Ogahiy o‘zga ijodkorlar yutuqlarini ko‘rolmagan shoirga qarata “sen qilursen chekib yaqongni chok” deyish bilan ijod ahlidagi hasad, xudbinlik kabi illatlarni keskin fosh etadi va bunday shoirlar o‘z “she’r”larida buyuk ustozlar otini tilga olishga loyiq emasliklarini eslatib, “tutmag‘il nomi Xusravu Jomiy” deydi.

Ogahiy ta’kidlashicha, soxta san’atkor o‘z nazmini “she’r” deb atashga har qancha urinsa ham u chinakam she’r bo‘la olmaydi. Chunki botiniy ma’no (durri maknun) bo‘lmasa, uning go‘zalligi (mavzun) amri mahol. Buni esa talantsiz ijodkor anglab yetmaydi. Shu sababli quyida bu fikr ochiq aytilgan:

Sen chun nazmingga she’r qo‘yding ot,

Senga yo‘qturmu she’r elidin uyot?

Bo‘lmasa nazm chun durri maknun,

Sahl o‘lg‘ay tabiat mavzun.

Ogahiy “Senu men garchi shoirmiz” deya fikrini davom ettirar ekan, asosiy diqqatni “aroda farq zohir”ligiga qaratadi. Bu farqni turli saviyadagi shoirlarning iste’dod darajasi, xarakteri, umuman shaxsiyatida ko‘radi va baholaydi. Bunda u “samumu nasim”ni (qattiq shamol) qiyos vositasi qilib tanlaydi va shamolga xos orom yoki ozorbaxshlik xususiyatlarini tashbih sifatida qo‘llaydi.

Ko‘rki birdekk emas samumu nasim,

Biriga yer — jinon, biriga — jahim.

Bu o‘rinda shamolning yoqimli yoxud garm sel bo‘lishi nazarda tutilib, birinchisi jannat (jinon), ikkinchisi do‘zax (jahim) timsolidir. Bu esa shoirlar ijodida har xil aks etadi. Birining she’ri muloyim va yumshoqlikda (narmlik) inson ruhiyatini ko‘tarsa, ikkinchisi kuydiruvchi (garm) xosiyati bilan jonga xavf soladi:

Narmlikda biri ravanparvar,

Birdin garmlikda jonga xatar.

Umuman, Ogahiyning haqiqiy va soxta shoirlar haqidagi fikrlari uning adabiy-tanqidiy qarashlarini o‘rganishga yordam beradi.

¹ Огаҳий. Асарлар. VI жилдлик. I жилд. Тошкент. Адабиёт ва санъат. 1971. Б. 47. (Кейинги иқтибослар шу жилдликлардан олиниб, қавс ичида жилд ва сахифа рақамлари кўрсатилади. Г.А.)